

**IMTIYOZLI SAVDO TIZIMI MAMLAKAT TASHQI SAVDO
MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUHIM OMIL****THE PREFERENTIAL TRADE SYSTEM IS AN IMPORTANT FACTOR
IN THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY'S FOREIGN TRADE
RELATIONS****Jumayev Nodir
Xosiyatovich***¹Iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta'lif, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi***Annotation**

Uzb. - Maqlada mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanirish borasidagi chora-tadbirlar, jahon savdo tizimiga integratsiyalashuv, GSP+ tizimining mohiyati va mazkur tizim doirasida imtiyozlar taqdim etishning asosiy shart-sharoitlari tadqiq etilgan. Shuningdek, GSP+ tizimiga kirish bosqichlari hamda GSP+ tizimi doirasida mamlakatimiz tashqi savdo munosabatlarini rivojlanirishda erishiladigan imkoniyatlar bayon etilgan.

Eng. - The article discusses measures for the development of foreign economic activity in our country, integration into the world trade system, the essence of the GSP + system and the main conditions for granting benefits under this system. It also describes the stages of entry into the GSP + system and the possibility of developing foreign trade relations of our country within the framework of the GSP + system.

Kalit so'zlar:**Keywords:**

❖ eksport, import, savdo rejimi, preferensiya, tarif, proteksionizm, konvensiya, benefitsiar mamlakat, xalqaro raqobat.

❖ export, import, trade regime, preference, tariff, protectionism, convention, country-beneficiary, international competition.

Kirish.

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanirish, xorijiy mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, shuningdek, yuqori sifatlari raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish asosida jahon bozorlaridan mustahkam o'rinnegi egallashi va shu orqali milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar faol ravishda amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning jahon bozorlarida mustahkam o'rinnegi egallashi va tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi ko'p jihatdan milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini yanada oshirish hamda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga bog'liqdir. Shu jihatdan mamlakatimizda

iqtisodiyotning rivojlanishi uchun tashqi savdoning rolini, ayniqsa uning eksport salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida milliy iqtisodiyotda chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o'sishni ta'minlashning qator muhim yo'naliishlari belgilab berildi. Ushbu muhim yo'naliishlardan biri sifatida yangi eksport bozorlariga chiqish Hukumatning eng asosiy vazifalaridan biri ekanligi qayd etilgan holda bu borada 2021-yilda mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zolik masalasi hamda Yevropa Ittifoqi bilan keng qamrovli hamkorlik bo'yicha ishlarni faollashtirish hamda "GSP+"

tizimi doirasidagi imtiyozlarni mamlakatimizda samarali qo'llash uchun alohida dastur ishlab chiqish kabi dolzARB masalalarni hal etish lozimligi alohida ta'kidlangan edi [2]. Shu bilan birgalikda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yaratilgan hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning ustuvor maqsad va vazifalarini o'zida mujassam etgan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da "eksportchi korxonalarga ko'rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish hamda eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirib, Yevropa davlatlariga "GSP+" tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish" ustuvor vazifalardan etib belgilangan [1].

Iqtisodiy taraqqiyotga erishish yo'lida belgilangan bu kabi dolzARB masalalarni amalga oshirish hamda tashqi savdo aloqalarini yanada kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ijobiy natijasi o'laroq 2021-yil 10-aprelda O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv bo'yicha maxsus imtiyozlar tizimi "GSP+" kuchga kirdi. Mamlakatimiz ushbu tizimga Preferensiylar bosh tizimi doirasida benefitsiar mamlakat sifatida qabul qilingan edi. "GSP+" tizimining a'zosi sifatida O'zbekiston GSP qamrab olayotgan mahsulot liniyalarining uchdan ikki qismiga tariflarni to'liq bekor qilish orqali standart GSPga nisbatan qo'shimcha imtiyozlarga ega bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, tashqi savdo hajmi va eksport salohiyatining oshishiga qulay zamin yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Zamonaviy sharoitda mamlakatlar o'rtaSIDagi tashqi savdo aloqalarini faollashtirishda imtiyozli savdo rejimlaridan foydalanishning asosiy jihatlari, GSP standart preferensiylar tizimining mohiyati, "GSP+" tizimining ahamiyati va uning afzallik tomonlari, imtiyozli tarif tizimi

foydalanishning xususiyatlari hamda "GSP+" bo'yicha benefitsiar maqomini olishning shart-sharoitlari ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilgan bo'lib mazkur tadqiqotlar alohida ilmiy yondoshuvlarga egadir. Jumladan, T.S.Naumova va K.V.Xolostyakovlar imtiyozli tariflarni joriy etishning asosiy jihatlari, shart-sharoitlari va ularni qo'llash orqali tashqi savdoni rivojlantirish imkoniyatlarini tadqiq etishgan [7].

T.O.Alekseeva, A.V.Gubin va Y.V.Drobotlar Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi sharoitida tarif preferensiylari tizimi, joriy etish imkoniyatlari va faoliyatining asosiy xususiyatlari hamda rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan [3, 4, 5].

Ç Özden, E.Reinhardt, T.Koychumanov va V.B.Rijovlar rivojlanayotgan mamlakatlarda tashqi savdo munosabatlarini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish maqsadida preferensiylar bosh tizimini joriy etish, unga kirishdagi asosiy talablar hamda savdo siyosati va mahsulot ishlab chiqarishni xalqaro standartlarga moslashtirish masalalarini tadqiq qilishgan [13, 6, 9].

P.Brenton, Sanchez Arnaular rivojlanayotgan mamlakatlarni jahon savdo tizimiga integratsiyalash, Yevropa Ittifoqi doirasida imtiyozlar taqdim etishning asosiy shart-sharoitlari, GSP+ tizimiga kirish bosqichlari va qo'yilgan talablar hamda GSP+ tizimida taqdim etiladigan imtiyozlar yuzasidan tadqiqotlar olib borishgan [11, 12].

M.V.Novikov, S.V.Zemlyanskayalarning ilmiy tadqiqot ishlari tashqi savdo munosabatlarini liberallashtirish sharoitida bojxona tarif siyosatini shakllantirish tamoyillari, bojxona ittifoqi doirasida tarif imtiyozlaridan foydalanishga bag'ishlangan [8].

S.P.Udovenko va Y.V. Kuzminiyxlarning tadqiqotlarida xalqaro savdoda tarif imtiyozlari tizimi va zamonaviy sharoitda uni joriy etish xususiyatlari, bosqichlari va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun imtiyozli tariflarni joriy

etish hamda uni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlagan [10].

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi va xalqaro raqobatlashuvning keskinlashishi sharoitida mamlakatlarning tashqi bozorlardagi faoliyatida muayyan darajada murakkabliklar vujudga keladi, mazkur jarayonda tashqi savdoni rivojlantirish uchun imtiyozli tizimlarning joriy etilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hozirgi globallashuv sharoitida jahon bozoridagi kon'yunkturaviy o'zgarishlarni hisobga olgan holda tashqi savodning imtiyozli tizimlaridan foydalanishning asosiy jihatlarini tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalananilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi kunda ko'plab ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan muhokamalarda qo'llanilayotgan "GSP+" tizimining mohiyati va uning O'zbekiston Respublikasi uchun afzalliklari xususida to'htalib o'tish maqsadga muvofiq.

"GSP+" tizimi rivojlanayotgan mamlakatlar eksportini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan umumiy imtiyozlar tizimi bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlar eksport qiladigan tovarlar uchun bojxona tariflaridan imtiyozlar berishni ko'zda tutadi. "GSP+" (Generalised Scheme of Preferences Plus) - turli mahsulotlarga tariflarni pasaytirishni ta'minlaydigan imtiyozli tarif tizimi bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlar bozorlariga eksport qilinadigan tovarlarga bojxona tariflaridan imtiyozlar berishga yo'naltirilgan [5]. Mazkur imtiyozlar berish tizimi deyarli barcha turdag'i sanoat va ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlariga nisbatan qo'llaniladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tarif imtiyozlari berish g'oyasi 1960-yillarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferensiysi (UNCTAD) doirasida jiddiy muhokama mavzusi bo'lgandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon bozorlariga hech qanday to'siqlarsiz kirib borishini ta'minlash, ular uchun imtiyozli savdo tizimini yaratish orqali tashqi savdo munosabatlarini faollashtirishga qaratildi. 1964 yilda UNCTAD doirasida qabul qilingan preferensiyalar bosh tizimini yaratish bo'yicha tavsiyanomada rivojlanayotgan mamlakatlardan olib kirilayotgan tovarlarga ular tomonidan hech qanday o'zaro imtiyozlarni talab qilmasdan imtiyozli bojxona bojlarini ichki qonunchilik asosida joriy etish yo'li bilan har bir rivojlangan mamlakat tomonidan alohida rivojlanayotgan mamlakatlarga preferensiyalar (bojxona tarifining imtiyozli stavkalari) taqdim etilishi ko'zda tutilgan.

Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitimdan (GATT) boshlab va keyinchalik Juhon savdo tashkilotida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtaida savdo aloqalarini rivojlantirishning doimiy jarayoni davom etgan holda rivojlanayotgan mamlakatlardan tovarlarning kirishini yanada osonlashtirish usullari takomillashtirilmoqda. Bu esa so'nggi o'n yilliklarda ularning savdo-iqtisodiy salohiyatidagi jiddiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida xizmat qilmoqda. Avvalo, bu usullar turli bojxona tarif imtiyozlarini joriy etishga taalluqli bo'lib mamlakatlarning tashqi savdodagi ishtiroti uchun yanada maqbul sharoitlarga erishish imkonini beradi.

Preferensiyalar bosh tizimi (Generalized System of Preferences) doirasida rivojlanayotgan mamlakatlarga taqdim etilgan imtiyozlar muayyan majburiyatlarni bajarish sharti evaziga berildi. Bundan tashqari, bu shartlar rivojlangan mamlakatlar talablariga javob beradigan mahsulotlar sifati va

xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan ancha murakkab hisoblanadi [7]. Rivojlangan mamlakatlar tomonidan taqdim etilgan Preferensiyalar bosh tizimi haqiqatda nafaqat rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlar uchun savdoni osonlashtirishga asosiy mezon sifatida, balki o'z ishlab chiqaruvchilarini himoya qilishga ham qaratilgan. Ammo, imtiyozli rejim rivojlanayotgan mamlakatlarga o'z mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi bozoriga olib kirishdagi imkoniyatlarni kengaytirishda qulay sharoit yaratdi.

Preferensiyalar bosh tizimining xususiyatlari rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bozorga ko'proq imtiyozli kirishni ta'minlash evaziga benefitsiar mamlakatlarni GATT / JSTning "eng ko'p qulaylik rejimi"dan rasmiy ravishda chiqarib tashlashni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, Preferensiyalar bosh tizimi bo'yicha bozorga kirish 7 foiz yoki nol foiz stavkalarni tashkil etadigan bo'lsa, "eng ko'p qulaylik rejimi"da bu ko'rsatkich 10 foizni tashkil qiladi [14].

Yevropa Ittifoqining Preferensiyalar bosh tizimiga muvofiq tarif imtiyozlari tovarlarning kelib chiqish qoidalariga rioya qilish kabi bir qator shartlarga mos kelishi kerak.

So'nggi o'n yilliklarda savdoni ko'p tomonlama tartibga solishning asosiy tendensiyasi uni liberallashtirish va to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan, shu jumladan rivojlangan mamlakatlarning bojxona-tarif himoyasini zaiflashtirish va notarif proteksionizmni cheklash bo'yicha choratadbirlarni o'z ichiga olgan rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlarini ifodalovchi yanada moslashuvchan usul va yondashuvlarga aylandi.

Rivojlanayotgan va eng kambag'al mamlakatlar uchun Yevropa Ittifoqining Preferensiyalar bosh tizimidan farqli o'laroq, GSP+ Yevropa Komissiyasi tomonidan o'rnatilgan inson huquqlari va atrof-muhitni muhofaza qilishga tegishli bo'lган qator mezon

va shartlarga javob bergan holda qo'shimcha afzalliklar beradi.

Yevropa Ittifoqining "GSP+" tizimi savdo siyosati vositasi bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlardan olib kirilayotgan tovarlarni bojxona bojlaridan ozod qilishni nazarda tutadi, uning maqsadi benefitsiar mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga va ularning eksport salohiyatini oshirishga yordam berishdan iboratdir.

"GSP+" tizimining asosi bo'lib Yevropa Ittifoqining GSP standart preferensiyalar tizimi hisoblanadi. GSPda benefitsiar mamlakatlardan import qilinadigan mahsulotlarga nisbatan bojxona to'lovlarini 66 foizga pasaytirish nazarda tutilgan bo'lsa, "GSP+" imtiyoz olgan mamlakatlar tomonidan mehnatni muhofaza qilish, inson huquqlari, samarali boshqaruva atrof-muhitni himoya qilish sohasidagi 27 ta xalqaro konvensiyalar talablariga rioya etish sharti bilan bojsiz savdoni nazarda tutadi [9].

"GSP+" Barqaror rivojlanish va hukumatni rag'batlantirish uchun maxsus Yevropa Ittifoqi tizimi bo'lib rivojlanayotgan mamlakatlarga inson huquqlari, mehnat huquqlari, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqaruva bo'yicha xalqaro konvensiyalarini ratifikatsiya qilish va amalga oshirishga yordam berish uchun qo'shimcha imtiyozlar yaratadi. Shuningdek, ushbu tizim xalqaro qadriyatlar va tamoyillar, xususan, inson va mehnat huquqlari asosida rivojlanayotgan mamlakatlarga kambag'allikni qisqartirish va ish o'rinalarini yaratishga ko'maklashishni hamda ularda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan rag'batlantiruvchi choratadbirlarni ko'zda tutadi.

Imtiyozli tarif tizimi jahon ishlab chiqarishi hajmi va savdosida yuqori o'rnlarda turuvchi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (OECD) a'zo bo'lgan Amerika Qo'shma shtatlari, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Shveysariya kabi mamlakatlar tomonidan taqdim etiladi. Dunyo mamlakatlariga imtiyozli tarif tizimi

doirasidagi imtiyozlarni tatbiq qilinishi jarayoni Yevropa parlamenti va Yevropa Ittifoqi Kengashining maxsus tartib-qoidalardan belgilangan talablarga asosan tartibga solinadi [12]. Mazkur talablarga muvofiq "GSP+" tizimi doirasidagi imtiyozlardan foydalanishdagi asosiy shartlardan biri mamlakatning inson huquqlari, mehnat huquqlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, samarali davlat boshqaruvi sohalariga oid 27 ta xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilish va undagi majburiyatlarini samarali bajarish hisoblanadi. Ushbu shartlar tovarlarni eksport qilish imkoniyatlarini ta'minlashdan tashqari, keyinchalik barqaror rivojlanish va boshqaruvni tashkil etishga yordam beradi, chunki "GSP+" doirasidagi kelishuvlar nafaqat mahsulotlarni sotish bozorlarini kengaytirish orqali aholi daromadlari darajasini oshirishga, balki butun mamlakatning uyg'un rivojlanishiga yo'naltirilgan.

Tegishli "GSP+" konvensiyalari ikki qismdan iborat bo'lgan ro'yhatni ifodalaydi. Birinchi qism Xalqaro Mehnat Tashkilotining inson huquqlari va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi asosiy konvensiyalarini, shu jumladan mehnat va ishda irqiy, gender va boshqa turdag'i kansitishlarni bartaraf etish, shuningdek, ishchilarining fuqarolik, iqtisodiy, madaniy va siyosiy huquqlarini himoyalashni o'z ichiga oladi. Ikkinci bo'lim o'ziga atrof-muhit va boshqaruv tamoyillariga oid konvensiyalarni, jumladan, psixotrop va giyohvand moddalar va korrupsiyaga qarshi konvensiyalarni qamrab olgan. Ya'ni, bular jamiyat hayotining keng doirasini qamrab oluvchi muhim majburiatlardir.

"GSP+" bo'yicha benefitsiar maqomini olish uchun uchta asosiy shart majburiy hisoblanadi [6]:

1) kelib chiqish mezoni - tovar benefitsiar mamlakatda ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak;

2) transport mezoni - tovarlar Yevropa Ittifoqiga to'g'ridan-to'g'ri benefitsiar mamlakatdan olib kelinishi kerak;

3) hujjatli dalil mezoni - vakolatli organ tomonidan berilgan tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat yoki tovar kelib chiqishini tasdiqlovchi hujjatli dalillarning mavjudligi.

"GSP+" benefitsiar mamlakatlari uchun Xalqaro Mehnat Tashkilotining 27 ta konvensiyasi shartlarini o'z ichiga olgan qo'shimcha hujjatlar belgilangan.

Tizim doirasida taqdim etiladigan imtiyozlarni olish bo'yicha mamlakatning murojaati qayd etilgan sohalarga oid xalqaro konvensiyalar murojaat etuvchi tomonidan amalda to'liq ratifikatsiya etilganidan keyingina amalga oshirilishi mumkin. Yevropa Ittifoqi tomonidan belgilangan talablarga muvofiq, mamlakatning rasmiy murojaati qabul qilingandan boshlab 6 oy davomida Birlashgan millatlar tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkiloti qo'mitalarining hisobotlari o'rganib chiqiladi.

Mamlakat tomonidan ariza orqali rasmiy murojaat etilguniga qadar Yevropa Komissiyasi mamlakatning milliy qonunchilik normalarining xalqaro darajada qabul qilingan konvensiyalarga mosligi bo'yicha rasmiy savolnomalar o'tkazadi hamda davlat organlari tomonidan tayyorlangan asosli javoblar yuboriladi. Savolnomalar bo'yicha tayyorlangan javoblarning muhokamasi yakuniga muvofiq ijobjiy xulosa berilgan taqdirda mamlakatning "GSP+" tizimi doirasida benefitsiar maqomini olishi yuzasidan rasmiy murojaat arizasi hamda inson huquqlari, mehnat huquqlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, samarali davlat boshqaruvi sohalariga oid xalqaro konvensiyalarning ratifikatsiya qilinganligi to'g'risidagi hujjatlar Yevropa Komissiyasiga taqdim etiladi [9].

O'z navbatida belgilangan tartib-qoidalarga muvofiq imtiyozli tarif tizimidan foydalanuvchilar xalqaro konvensiyalarni amalga oshirish majburiyatini oladi va ularning bajarilishi doimiy ravishda Yevropa Ittifoqi Komissiyasi tomonidan o'rganilib boriladi. Shu maqsadda, mamlakatimizda xalqaro

konvensiyalarni amalga oshirilishini nazorat qilib borish hamda ular bo'yicha tegishli hisobotlarni taqdim etilishini ta'minlash borasida amaliy ishlar yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkilotining tegishli idoralari va qo'mitalari bilan hamkorlik munosabatlari yanada faollashtirildi.

Tegishli hujjatlarni o'rganish natijasida ijobjiy xulosa qabul qilinsa mamlakatga "GSP+" tizimi benefitsiari maqomini taqdim etish bo'yicha Yevropa Komissiyasi tomonidan qabul qilingan qaror Yevropa parlamenti va kengashiga yakuniy qaror qabul qilish uchun yuboriladi.

Xususan, savolnoma bo'yicha O'zbekiston Respublikasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida Yevropa Komissiyasining ijobjiy xulosasiga muvofiq 2020-yilning 29-may kuni mamlakatimizning "GSP+" tizimi doirasida benefitsiar mamlakat maqomini olishi yuzasidan rasmiy arizasi va tegishli xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilinganligi to'g'risidagi hujjatlari Yevropa Komissiyasiga yuborilgan hamda belgilangan tartibda hujjatlarni ko'rib chiqish jarayoni boshlangan. Hujjatlarni o'rganish natijalariga muvofiq 2020-yil 30-noyabrda Yevropa komissiyasi O'zbekistonga "GSP+" bo'yicha benefitsiar mamlakat maqomini berish yuzasidan ijobjiy xulosa qabul qildi. So'ngra Yevropa Komissiyasining ijobjiy xulosasi yakuniy qaror qabul qilish uchun Yevropa parlamenti va kengashiga yuborildi.

2021-yilning 9-aprel kuni mamlakatimizning rasmiy arizasi va xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilinganligi to'g'risidagi hujjatlar, shuningdek, respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ijobjiy natijalari hamda o'rganilgan ma'lumotlar asosida O'zbekistonga "GSP+" bo'yicha benefitsiar mamlakat maqomini berish to'g'risidagi hujjat Yevropa Ittifoqi Komissiyasi va parlamenti tomonidan qabul qilindi. Unga muvofiq 2021 yilning 10 aprel kunidan boshlab O'zbekiston jahondagi

Armaniston, Boliviya, Kabo-Verde, Mo'g'iliston, Qирғизистон, Покистон, Филиппин ва Шри-Ланка каби мamlakatlar qatori Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqaru bo'yicha maxsus preferensiyalar tizimi ("GSP+") doirasidagi imtiyozlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunga qadar O'zbekiston Respublikasi Preferensiyalar bosh tizimi ("GSP") doirasidagi imtiyozlarga muvofiq bojxona bojlarisiz 3000 ta, pasaytirilgan boj stavkalari asosida 3200 ta mahsulotlarni Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar bozorlariga eksport qilish imkoniyatiga ega edi.

Ta'kidlash joizki, "GSP+" tizimi mahalliy ishlab chiqaruvchilarga imtiyozli shartlarda 447 mln.dan ortiq aholiga ega bo'lgan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bozorlariga kirish imkoniyatini beradi. "GSP+" tizimi bo'yicha taqdim etilgan imtiyozlar asosida mamlakatimiz Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bozorlariga 6200 turdag'i mahsulotlarni bojxona bojlarisiz eksport qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu jarayonda mamlakatimizning asosiy eksport tovarlari hisoblangan to'qimachilik sanoati mahsulotlari, qurilish materiallari, poyabzallar, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, transport vositalari, sopol va metall mahsulotlari, neft va kimyo sanoati mahsulotlari, mineral o'g'itlar hamda texnologik uskunalar bojxona boji to'lashdan ozod etilgan. Bu holat natijasida eksport mahsulotlari narxining pasayishi va ularning jahon bozorlarida raqobatlashuv darajasining oshishiga erishiladi, shuningdek, mamlakatning tashqi savdo aloqalarini yanada rivojlantirish hamda yangi bozorlarga kirib borish orqali eksport salohiyatini oshirishga qulay sharoit yaratiladi.

Xulosa va takliflar.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bozorlariga milliy mahsulotlarni eksport qilishdagi asosiy masalalardan biri ushbu mahsulotlarning Yevropa Ittifoqi tomonidan o'rnatilgan texnik, sanitar, fitosanitar talab va standartlarga

mosligini ta'minlash hisoblanadi. Shu sababli milliy ishlab chiqaruvchilar o'z faoliyatida Yevropa Ittifoqi tomonidan o'rnatilgan texnik, sanitar, fitosanitar talab va standartlarni doimiy ravishda e'tiborga olishi lozim bo'ladi. Shu munosabat bilan, Yevropa Ittifoqining mazkur talablarini o'rganish asosida eksportyor korxonalar faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada faollashtirib borish maqsadga muvofiq. Shuningdek, Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar bozorlari holatini doimiy o'rganib borgan holda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlarini yanada kengaytirish lozim.

Aytish lozimki, "GSP+" tizimi doirasidagi imtiyozlarning mamlakat tashqi savdosini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi tufayli bu tizim imkoniyatlardan Juhon savdo tashkilotiga a'zo mamlakatlar ham harakat qiladi. Chunki "GSP+" tizimi rivojlanayotgan mamlakatlarga tashqi savdo uchun qulayroq rejimni taklif etadi. Bunga ko'ra "GSP+" tizimi asosida o yoki pasaytirilgan boj tarifi qo'llaniladi. Mamlakatning tashqi savdo salohiyatini oshirish tizim doirasida yaratilgan imtiyozlardan samarali foydalanilishiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, GSP va GSP+ rejimlaridan foydalanish rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sotish

bozorlarini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yevropa Ittifoqi bozoriga eksport qilinadigan tovarlarning eng katta ulushi Osiyo mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, imtiyozli rejimlardan samaraliroq foydalanish uchun Osiyo mamlakatlari Yevropa Ittifoqi doirasida mahsulot turlari va eksport geografiyasini kengaytirishni hisobga olish kerak. Rivojlanayotgan mamlakatlar eksportini rivojlantirishga ko'maklashish uchun imtiyozli tizim mexanizmlarini birinchi navbatda ushbu davlatlarning asosiy eksport tovarlariga yo'naltirish zarur.

O'zbekistonning "GSP+" tizimi benefitsiari maqomiga ega bo'lishini, avvalo, respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning xalqaro darajadagi e'tirofi sifatida qabul qilish o'rinnlidir. Umuman olganda, "GSP+" tizimi doirasidagi imtiyozlar asosida tashqi savdo munosabatlarini yo'lga qo'yish mamlakatimizning Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish, Juhon savdo tashkilotiga a'zolikka kirishdagi imkoniyatlarni kengaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning yangi bozorlarga chiqishiga ko'maklashish, ularning eksport salohiyatini hamda jahon bozorlaridagi raqobatlashuv darajasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
<https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
3. Алексеева Т.О. Система тарифных преференций в условиях Евразийского экономического союза: особенности применения и проблемы функционирования // Финансы и кредит. - 2017. - № 16(736). - с. 958-972.
4. Губин А.В. Необходимость изменения системы тарифных преференций в Евразийском экономическом союзе // Вестник Российской таможенной академии. - 2017. - № 1(38). - с. 36-44.
5. Дробот Е.В. Единая система тарифных преференций Евразийского экономического союза: особенности функционирования и направления развития // Российское предпринимательство. 2017. №24.

6. Койчуманов Т. Вопросы применения всеобщей системы преференций GSP+ развивающимися странами. Реформа № 2(86) 2020. 43-42 стр.
7. Наумова Т.С., Холостякова К.В. Тарифные преференции: институциональный аспект применения // Общество: политика, экономика, право. 2016. №8. - с. 43-49.
8. Новиков М.В., Землянская С.В. Система тарифных преференций Таможенного союза // Вестник Волгоградского университета. Серия 3. Экономика. Экология. 2013. № 1 (22). С. 223-228.
9. Рыжов, В. Б. «Система общих преференций» со стороны Европейского союза развивающимся странам Азии и Латинской Америки // Международное право и международные организации / International Law and International Organizations. – 2012. – №. 1. – С. 100-106.
10. Удовенко С.П., Кузминых Ю.В. Системы тарифных преференций в международной торговле и особенности их предоставления в современных условиях // Вестник Московского университета МВД России. 2016. №6.
11. Brenton, P. Integrating the least developed countries into the world trading system: The current impact of EU preferences under everything but arms. – World Bank Publications, 2003.
12. Sanchez Arnau, Juan C. The Generalized System of Preferences and the World Trade Organization. London: Cameron May, Ltd., 2002, p. 187.
13. Özden, Ç., Reinhardt, E. The perversity of preferences: GSP and developing country trade policies, 1976-2000 // Journal of Development Economics. – 2005. – T. 78. №. 1.
14. Report from the Commission to the European Parliament and the council on the GSP covering the period 2018-2019. Brussels, 10.2.2020 JOIN (2020) 3 final.